

YALPI ICHKI MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRISH



Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, Davlat statistika qo'mitasi tomonidan 2018 yilning yanvar – marti uchun yalpi ichki mahsulotni (keyingi o'rinlarda YaIM) dastlabki baholash amalga oshirildi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilning yanvar – martida O'zbekiston Respublikasi YaIM hajmi joriy narxlarda 64 958,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 5,1 % ga o'sdi. YaIM deflyatori indeksi 2017 yilning yanvar – martidagi narxlarga nisbatan 137,4 foizni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga hisoblangan YaIM 1 986 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 % ga yuqoridir.

2018 yilning yanvar – martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaIM ni ishlab chiqarish quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi:

	<i>Mrd.so'm</i>	<i>2017 y. yanvar- martga nisbatan % da</i>	<i>YaIM o'sishidagi hissasi, %</i>
YaIM - jami	64 958,0	105,1	5,1
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	54 450,6	105,0	4,4
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3 430,4	101,8	0,1
sanoat	18 927,0	105,0	1,3
qurilish	4 139,0	112,2	0,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5 990,6	101,1	0,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6 711,8	107,1	0,8
boshqa xizmat tarmoqlari	15 251,8	104,6	1,3
Mahsulotlarga sof soliqlar	10 507,4	105,3	0,7

Iqtisodiy o'sish sur'ati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (keyingi o'rinlarda YaQQ) hajmi YaIM umumiy hajmining 83,8 % ini tashkil etdi va 5,0 % ga o'sdi (YaIM mutloq o'sishiga ta'siri 4,4 foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YaIM tarkibidagi ulushi 16,2 % ni tashkil etdi va 5,3 % darajasida o'sish qayd etildi (YaIM mutloq o'sishiga ta'siri 0,7 f.p.).

2018 yil yanvar - mart uchun YaIM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari



YaIM o'sish sur'atiga xizmatlar sohasi eng katta ta'sir ko'rsatdi (2,2 f.p.) va bu soha o'tgan yilning yanvar-martiga nisbatan 4,4 % ga o'sdi. Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 1,1 % ga, tashish va saqlash, axborot va aloqa – 7,1 % ga va boshqa xizmatlar - 4,6 % ga o'sdi.

Sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymatida 5,0 % lik o'sish qayd etildi. Sanoat ishlab chiqarishining YaIM mutloq o'sish sur'atiga ijobiy ta'siri 1,3 f.p. darajasida baholandi. Sanoat tarmog'idagi o'sish tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'i qo'shilgan qiymatining 20,7 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat tarmog'i qo'shilgan qiymatining 1,8 % ga va boshqa sanoat tarmoqlarining 5,8 % ga o'sishi hisobiga ta'minlandi.


Yanvar - mart uchun Sanoat tarmog`ining yalpi qo`shilgan qiymati tarkibi

	2017 y.	2018 y.	Fizik hajm indeksi, %
Sanoat	100,0	100,0	105,0
<i>shu jumladan:</i>			
tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	16,8	25,8	120,7
ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat	70,9	65,5	101,8
sanoatning boshqa tarmoqlari	12,3	8,7	105,8


Ko'pkvartirali turar joy binolari qurilishi, shuningdek sanoatning bazaviy tarmoqlari korxonalarini qurilishi va modernizatsiyasi bilan bog`liq investitsiya loyixalarini amalga oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar natijasida qurilish tarmog`ining o'sish sur'atlari 12,2 % ni tashkil etdi. YaIM ning mutloq o'sishida qurilish tarmog`ining ijobiy hisssasi 0,8 f.p. darajasida baholandi.

2018 yilning yanvar – marti yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida ham 1,8 % darajasida ijobiy o'sish sur'ati kuzatildi. Mazkur tarmoqdagi o'sish sur'ati hisobidan YaIM ning 0,1 f.p. o'sishi ta'minlandi.

2018 yil yanvar – martida YaIM o'sishida tarmoqlarning hisssasi



Yanvar - mart uchun YaIM ning tarmoqlar bo'yicha tarkibi



Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligining YaIM tarmoqlari bo'yicha tarkibidagi ulushi 2017 yil yanvar – martdagi 6,5 % dan 2018 yil yanvar – martda 6,3 % gacha kamaydi. Sanoatning ulushi 29,1 % dan 34,8 % ga, qurilishning ulushi 7,4 % dan 7,6 % ga oshdi.

Xizmatlar sohasining YaIM tarmoqlari bo'yicha tarkibidagi ulushi 2018 yilning yanvar – martida 51,3 % ni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar – martidagiga (57,0 %) nisbatan 5,7 f.p. ga kamaydi.

2018 yilning yanvar – martida mulkchilik shakllari bo'yicha YaIM umumiy hajmining 78,8 % iqtisodiyotning nodavlat sektoriga, 21,2 % davlat sektoriga to'g'ri keldi.